

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

SADIKOV MUHAMMAD RASHID O‘G‘LI

**PAXTA TOLASINI AERODINAMIK USULDA TOZALOVCHI DUSTEX
MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHSULOT SIFATINI
OSHIRISH**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical science**

Sadikov Muhammad Rashid o‘g‘li

Paхта tolasini aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasini takomillashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish..... 5

Садиков Мухаммад Рашид ўғли

Улучшения качества продукции за счёт усовершенствование очистки волокна на очистительной машине Dustex аэродинамическим способом..... 29

Sadikov Muhkhammad

Increasing product quality by improving Dustex machine that cleans cotton fiber through aerodynamic way 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

SADIKOV MUHAMMAD RASHID O‘G‘LI

**PAXTA TOLASINI AERODINAMIK USULDA TOZALOVCHI DUSTEX
MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHSULOT SIFATINI
OSHIRISH**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan-2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/T4480 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nts.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobojanov Xusanxon Toxirovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sarimsakov Olimjon Sharifjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Matismailov Saypila Lolashbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «21» «dekabr» soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info @nts.uz, Namangan to'qimachilik sanoat instituti 1-bino, 2-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan to'qimachilik sanoati instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «07» «dekabr» kuni tarqatildi.

(2024 yil «07» oktabrdagi № 26-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

N.B.Maqsudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika
fanlari falsafa doktori, dotsent

J.K.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda to‘qimachilik sanoati jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanib, unga insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan beri talab oshib bormoqda, ayniqsa tabiiy tolalardan tayyorlangan to‘qimachilik sanoati mahsulotlari, ya‘ni paxta tolasiga bo‘lgan talab yuqori bo‘lgani bois undan sifatli ip olish uchun, tolaga shikast yetkazmay tozalash, iste‘molchilar talablari va standartlarga mos, sifatli, hamda tannarxi arzon bo‘lgan ip mahsulotlari ishlab chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. 2024 Cotton Incorporated Lifestyle Monitor tadqiqotiga ko‘ra, amerikalik iste‘molchilar orasida paxta tolasidan tayyorlangan to‘qimachilik mahsulotlari eng ko‘p talab bo‘lgan mato hisoblanadi. Bu hammom sochiqlari (89 foiz) yostiqlar (85 foiz) choyshablar (79 foiz) va boshqa buyumlarga tegishlidir. Taqqoslash uchun, poliesterni iste‘molchilarning atigi 6 foizi hammom sochiqlari uchun, 12 foizi choyshablar uchun va 10 foizi yostiqlar uchun afzal ko‘radi¹. Shu bois, paxta tolasidan ishlab chiqarilayotgan ip mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini mato ishlab chiqarish jarayonlarida muhimligini inobatga olib tolani tozalash mashinalarining texnologik parametrlarini to‘g‘ri sozlash orqali sifatli ip mahsulotlarini olish va mashina unumdorligini oshirish, boshqarilishi sodda va qulay bo‘lgan, avtomatlashgan, resurstejamkor hamda atrof-muhitga zararsiz bo‘lgan texnologiyalarni yaratish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta tolasidan sifatli jahon talablariga mos ip mahsulotlarini ishlab chiqarish, yangi assortimentdagi ip mahsulotlarining ishlab chiqish va ularni sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, yangi energiya tejamkor, avtomatlashgan yigirish mashinalarini yaratish, tolaga shikast yetkazmaydigan aerodinamik tozalash mashinalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda jumladan, paxta tolasini tozalash mashinalarini asosiy ishchi mexanizmlarini takomillashtirish orqali paxta tolasidan yigiriladigan ip mahsulotlarini sifati va unumdorligini oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, tolani dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda tozalash orqali yuqori sifatli ip olish texnologiyasini takomillashtirish, aerodinamik usulda tozalash mashinalarini ishchi parametrlarini mahsulot sifat ko‘rsatkichlariga mos holatda sozlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, paxta tolasidan tayyorlangan iplarning sifat-ko‘rsatkichlarini yuqori darajasidagi talablar asosida ishlab chiqarish, mashinaning texnologik imkoniyatlarini oshirish, dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik sanoatining tarmoqlarini jadal sur‘atlarda rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor to‘qimachilik mahsulotlarning assortimentlarini yanada kengaytirish, yangi ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini kengaytirish bo‘yicha chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli farmoni bilan imzolangan “2022-2026-yillarga

¹ <https://lifestylemonitor.cottoninc.com/why-consumers-want-the-look-feel-of-natural-fibers-at-home/>

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da, jumladan «...milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish»² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, paxta tolasini tozalash mashinalarining konstruktsiyasini takomillashtirish hamda bu orqali mahsulot unumdorligini oshirish, tola va ip mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish, mashinaning maqbul ishchi parametrlarini tanlash, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 maydagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-71-son farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi «Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-2-son Farmoni, 2023 yil 2 sentabrdagi «To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-155-son Farmoni, 2022 yil 21 yanvardagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-53-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ip yigirish korxonalarining mashinalarini ishlab chiqarish, unumdorligini oshirish, ishchi parametrlarini optimallashtirish, yangi konstruktsiyadagi tozalash mexanizmlarini yaratish, mashinaning tozalash samaradorligini oshirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan Ф.М. Дмитриев, С. А. Фёдорова, Л., М. Кузмина, Б.М.Владимиров, А.Ф.Плеханов, С.А.Носкова, Д. А. Горской, Г. Л. Гаспарян, Е. Н. Вахромеева, Ю. Б. Зензинова, И. С. Горячей, В. И. Подрезова, А.Г.Хосровян, Е.И.Громова, В. Г. Гончаров, Д. В. Смолин, Р.В.Корабелников, Р. З. Бурнашев, Д. А. Лебедев, V.G.Arude, T.S.Manojkumar, S. K.Shukla, R.G.Hardin va R.K.Byler va boshqalar.

Ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish hamda mashinaning asosiy parametrlarini optimallashtirish, tozalash mashinalari samaradorligini oshirish, yarim mahsulotlarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashga O'zbekistonning taniqli olimlari ilmiy ishlar olib borishgan. Bulardan: Q.J.Jumaniyazov, Q.G'.G'ofurov, Matismailov S.L., B.Mirzaboyev, I.A.Azizov,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Yuldashev J.Q., Qoraboyev Sh.A., Sarimsaqov O.Sh., Muradov R.M., X.T.Axmedxodjayev, A.A.Obidov, N.O.Odilhanova, J.B.Mirzaboyev, M.N.Inoyatovalar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida tozalash mashinalarining asosiy ishchi qismlari konstruksiyalarining takomillashtirish va ularning ishchi parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlash, pnevmomexanik usulda olinayotgan iplarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, aerodinamik tozalash mashinalarining konstruksiyasini takomillashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish, mashina ishchi parametrlarini optimallashtirish orqali iplarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramasdan aerodinamik tozalash mashinalarining tozalash mexanizmlarini takomillashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish, ipdagi tugunaklar sonini hamda notekisligini kamaytirish borasidagi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan to'qimachilik sanoati instituti ilmiy tadqiqot ishlarining rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Paxta tolasini aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasini takomillashtirish orqali ip sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tolaning tabiiy va mexanik xususiyatlariga ta'sir etuvchi jarayonlar o'rganilib, tola sifatini saqlash va yaxshilashda tozalash jarayonini tadqiq etish;

tola tutamining tozalash jarayonidagi harakati, tola tezligining intensiv ravishda ortishi, tebranish chastotasi, tezlik va ko'chish parametrlariga kuchi ta'sirini o'rganish;

aerodinamik tozalash mashinasining perfosirtini harakatlantirish uchun yangi takomillashtirilgan eksentrik valni konstruksiyasini ishlab chiqish;

aerodinamik tozalash mashinasining havo tezligi va perfosirtiga o'rnatilgan eksentrik valning maqbul ishchi parametrlarini aniqlash;

takomillashgan konstruksiyali aerodinamik tozalash mashinasidan olingan maxsulotdan tarash piltasini ishlab chiqarish va uning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

tajriba va korxonada olingan ip namunalarning sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish va standart talablarga taqqoslash;

takomillashtirilgan aerodinamik tozalash mashinasini qo'llash natijasida olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning obyektini aerodinamik tozalash mashinasi va uning asosiy mexanizmlari, shlyapkali tarash mashinasi, pnevmomexanik yigirish mashinasi olingan.

Tadqiqotning predmetini yangi konstruksiyadagi eksentrik val, tarash piltasi, ip mahsulotlarining chiziqli zichligi bo'yicha notekisligi, tugunaklar, mashinada mahsulot sifatini oshirish jarayonlarini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qimachilik mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning dasturiy tahlili, nazariy mexanika, statistik va matematik hisoblash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta tolasini sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda tozalash imkonini beruvchi aerodinamik usulda tola tozalovchi Dustex mashinasining mavjud perfosirtlaridan farqli bo'lgan turli o'lchamlarda tayyorlangan konstruksiyasi yaratilgan;

aerodinamik usulda tola tozalovchi Dustex mashinasining perfosirtlarini harakatga keltiruvchi eksentrik valdan iborat bo'lgan mexanizm konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tola tutamining tozalash jarayonidagi harakati, tola tezligining intensiv ravishda ortishi, tebranish chastotasi, tezlik va ko'chish parametrlariga ta'siri hisobga olib uning matematik modeli ishlab chiqilgan;

aerodinamik usulda tola tozalovchi Dustex mashinasining tozalash samaradorligiga erishisda havo va perfosirtlarini harakatga keltiruvchi eksentrik valning aylanish tezliklarining maqbul parametrlari regression matematik model orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasining perfosirtlarini harakatga keltiruvchi eksentrik val mexanizmi yaratilgan;

Dustex mashinasining perfosirtlarini harakatga keltiruvchi tashqi diametri 3 sm, ishchi uzunligi 160 sm, 6 ta eksentrikdan iborat yangi valning maqbul aylanish tezligi aniqlangan;

aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasining maqbul tozalash samaradorligiga erishish uchun optimal havo tezligi aniqlangan;

havo tezligi va eksentrik valning maqbul qiymatlarini aniqlash imkonini beruvchi regression matematik model olingan;

takomillashtirilgan aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasida tozalangan toladan olingan pilta va ipning sifat ko'rsatkichlari mavjud korxonada variantiga nisbatan yuqori bo'lishiga erishilgan;

takomillashgan aerodinamik tozalash mashinasining samaradorligi natijasida korxonada 1 soatda 1 ta mashinada olinadigan iqtisodiy samaradorlik 80 467,2272 so'm, 1 yilda esa 557 884 035 so'mga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumiy xulosalar, aerodinamik tozalash mashinasining yangi konstruksiyadagi mexanizmining maqbul qiymatlari bo'yicha tenglamalar olinanganligi, yangi takomillashgan tozalash mashinasidan so'ng olingan iplarni zamonaviy sinov laboratoriya dastgohlarida tekshirilganligi, nazariy va tajriba orqali olingan natijalarni bir-biriga o'zaro mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasining perfosirtlarini harakatga keltiruvchi mexanizm konstruksiyasi yaratilganligi, Dustex mashinasining tozalash samaradorligiga erishishda havo tezligi va yangi

konstruksiyasi perfosirtlarini harakatga keltiruvchi valning aylanish tezliklarini maqbul parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasining perfosirtlarini harakatga keltiruvchi eksentrik val mexanizmi yaratilganligi, diametri 3 sm, ishchu uzunligi 160 sm, 6 ta eksentrikdan iborat yangi valning maqbul aylanish tezligi aniqlanganligi, aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasining maqbul tozalash samaradorligiga erishish uchun optimal havo tezligi aniqlanganligi, takomillashtirilgan aerodinamik usulda tozalovchi Dustex mashinasida tozalangan toladan olingan pilta va ipning sifat ko'rsatkichlari mavjud korxonada variantiga nisbatan yuqori bo'lishiga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aerodinamik usulda tozalovchi yangi takomillashgan mashinani qo'llash orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

aerodinamik mashina perfosirtini harakatga keltiruvchi eksentrik valni qo'llab To'raqo'rg'on tumanidagi «FT textile GROUP» MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2024 yil 14-oktabrdagi № 03/25-2734 son ma'lumotnomasi). Natijada yangi konstruksiyadagi takomillashgan aerodinamik tozalash mashinasidan olinayotgan tolali qatlamdagi chigit qobig'ili nepslar o'lchami korxonada variantidan 2,54 % ga, umumiy nepslar miqdori 7,2% yaxshilangan, chiziqli zichlik bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 4% ga, nisbiy uzilish kuchi 7,4% ga, uzilishdagi nisbiy uzayishi esa 3,4% ga yaxshilangan hamda takomillashgan aerodinamik tozalash mashinasining samaradorligi natijasida korxonada 1 soatda 1 ta mashinada olinadigan iqtisodiy samaradorlik 80 467,22 (sakson ming to'rt yuz oltmish yeti so'm yigirma ikki tegin) so'm, 1 yilda mashinani takomillashtirish uchun sarflangan xarajatlar va qo'shimcha o'rnatilgan dvigatelning yillik elektr energiya sarfini umumiy iqtisodiy samaradorlikdan chiqarib tashlaganda 557 884 035 (besh yuzi ellik yeti million sakkiz yuzi sakson to'rt ming o'ttiz besh) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi,

tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Paxta tolasini mayda iflosliklardan tozalash mashinalari, tozalash samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar tadqiqi”** deb nomlangan birinchi bobida to'qimachilik sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri yigirilgan ip ishlab chiqarishda paxta tolasidan foydalanish, paxta tolasini yetishtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning o'rni, halqali yigirish mashinasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi yetakchi firmalarning eng so'nggi markadagi jihozlarini tavsifi, bugungi kunda to'qimachilik texnologiyasi bo'yicha olimlar va to'qimachilik korxonalarini mutaxassislarining oldida bir qator qilinishi lozim bo'lgan ishlar va yechilishi zarur bo'lgan muammolar, tozalash mashinalari mexanizmi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda to'qimachilik sanoatida yigiruv korxonalarida ishlab chiqilgan iplar xususiyatlarining ishlatilgan xomashyolarga va mashinalarning texnologik parametrlariga bog'liqligini o'rganish masalalari juda dolzarbdir.

Paxta xomashyosining tarkibidagi iflos aralashmalarning o'lchamlariga qarab mayda va yirik iflosliklarga bo'linadi. Paxta tolasini qayta ishlashda uni iflos aralashmalardan tozalash texnologik jarayoni muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanib, keyingi jarayonlariga ta'siri yuqori bo'ladi. Mayda iflos aralashmalar kerakli darajada tozalanmasa passiv holatdan aktiv holatga o'tadi va tola tozalagichda ajralishi qiyinlashadi.

Xomashyolardan oqilona foydalanishni ta'minlash, yuqori sifatli mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ko'proq ilmiy tadqiqotlar o'tkazish lozim, shuning asosida ip ishlab chiqarish jarayonlar texnologik parametrlarini optimallashtirish, yangi echimlarni loyihalashtirish zarur, buning natijasida esa paxta yigirish sanoati oldida turgan muammolarni samarali hal qilish imkoni yaratiladi. Shuningdek, paxta tolasining asosiy xossalari undan yigiriladigan iplarning xossalari bevosita ta'sir qiladi.

Dunyo mamlakatlarining yigiruv korxonalarida ishlatilayotgan tozalash mashinalari xilma-xil bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quyidagi tarkibga keltirish mumkin:

- Yot jismlardan tozalash mashinasi;
- Yirik nuqsonlar va aralashmalardan tozalovchi mashina;
- Mayda nuqson va aralashmalardan tozalash mashinasi.


Yuqori sifatli ip yigirib olish uchun paxta tolasini tozalash mashinalarni to'g'ri va samarali tanlanganligi birinchi o'rinda turadi.

Tozalash samaradorligi va darajasi yuqori bo'lgan, kelgusida ham takomillashtirishda davom etiladigan mashinalar bu arra tishli tozalagichlar hamda aerodinamik tozalash mashinalari hisoblanadi. Ularni yangi qirralarini ochib berish, yanada samarali foydalanish kabi masalalarini yechish, ularda bo'ladigan murakkab jarayonlarni chuqur nazariy va amaliy tadqiq etishni talab etadi.


Yigirish korxonalarida qo'llanilayotgan tozalash mashinalarini shartli ravishda uch turga ajratish mumkin: dastlabki, asosiy va aerodinamik tozalash

mashinalari. Titish–tozalash agregatlarida tozalash mashinalarining yuqoridagi tartibda ishlatilishi tolalarning shikastlanishini kamayishiga va mahsulot sifati oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda to‘qimachilik korxonalarida UNIstore A79, Uniclean B12 (Rieter), MAXI-FLO, CL-P, SP-F, SP-MF, DUSTEX SP-DX (Truetzschler), Duocleaner B390L (Marzoli) dastlabki tozalash mashinalari samarali ishlatilmoqda (1-2–rasmga qarang).



1–rasm. Bir barabanli (Rieter) (a) va ikki barabanli (Marzoli) (b) qoziqli (Truetzschler) (c) dastlabki tozalash mashinalari.



2-rasm. Truetzschler firmasini DUSTEX SP-DX iflosliklardan tozalash mashinasi.

Truetzschler firmasining yangilangan DUSTEX SP-DX (2-rasm) iflosliklardan tozalash mashinasida ta‘minlovchi (1) quvurdan pnevmoquvur orqali tola taqsimlovchi qurilma (2) ustki (3) perfosirtga bir tekisda taqsimlab, tolalarni purkaydi, so‘ngra sirpanib tushgan tolalar (4) so‘ruvchi quvur orqali keyingi jarayonga o‘tib ketadi. Tolalar tutamidan ajralib chiqqan chiqindilar (5) chiqarish quvuri orqali ajratib olinadi.

Tozalashda qatlamning bir me‘yorda uzatilishi muhim ahamiyatga ega. Tolali qatlam gorizontal, vertikal va qiya holatda ta‘minlovchi juftlar tomonidan tozalash organiga uzatiladi. Tozalash mashinalarida bunkerli ta‘minlash usuli ham qo‘llanilmoqda.

Pichoqli, qoziqli, shtiftli, egilgan tishli barabanlar bilan jihozlangan tozalagichlar mahsulotni erkin holatda tozalashda ko‘proq qo‘llaniladi. Ular bir-

biridan barabanlar soni, mahsulot yo'nalishi hamda barabanlarning qiya, gorizontal, vertikal o'rnatilishi bilan farqlanadi.

Tolali mahsulotni yirik iflosliklardan erkin holatda tozalashda baraban ostiga ajratuvchi pichoqlar, har xil shakldagi kolosniklar, perfosirtlar o'rnatiladi.

Kolosniklar uch qirrali, egilgan va to'g'ri plastinkali tuzilishlarga ega. Uch qirrali kolosniklardan ko'p holatlarda yaxlit panjaralar tashkil etiladi va bu holatda alohida kolosniklarni o'z o'qiga nisbatan burish orqali kolosniklar va ishchi organlar o'rtasidagi masofa o'zgartirilib kerakli tozalash samaradorligiga erishiladi.

Tolali mahsulotlarni titish-tozalash va tarash jarayoni natijasida ajratib olingan chiqindilar tarkibida yigiriluvchanlik xossasiga ega bo'lgan tolalar ham qo'shib ketishi tajribalar asosida aniqlandi.

Izlanuvchilar V.G.Arude, T.S.Manojkumar, S. K.Shukla tomonidan bir barabanli tozalash mashinasi yaratilgan. Paxta barabanning o'qi bo'ylab harakatlanishiga asoslangan bo'lib, arrachali baraban, panjarali sterjen, yuqori qopqoq va elektr yuritgichdan iborat. Tola tozalagichning uzunligi 1200 mm, arrali baraban diametri 443,4 mm bo'lib, mashinaning yirik iflosliklar, qum va changlarni ushlab qolish samaradorligi aniqlangan. Arrachali barabanning maqbul tezligi 225 ayl/min tashkil etgan. Ishlab chiqarilgan tolaning tashqi ko'rinishi yaxshilanib, elektr-energiya sarfi kamaygan.

Izlanuvchilar R.G.Hardin va R.K.Bylerlar tomonidan tozalangan paxta tarkibida qolgan iflosliklarning asosiylaridan biri plastik-pishmagan tolalar ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Ularni paxta tarkibidan ajratib olish uchun tozalash mashinalariga berilayotgan havo oqimi tezligini o'zgartirish bo'yicha tajribalar o'zkazishgan. Olib borilgan tajribalar natijalariga ko'ra plastik-pishmagan tolalar miqdorini paxta tarkibidan ajratib olish uchun arrali silindrning aylanishlar sonini kamaytirish taklif etilgan.

Lotin Amerika paxta texnologiyasi ilmiy-tekshirish instituti (CIRCOT) izlanuvchilari tomonidan tola tarkibida iflos aralashmalarni ajratib olish uchun qiya tipdagi barabanli tozalagichlar yaratilgan. Ushbu tozalagichlar 6 ta barabandan tashkil topib, barabanlarni ishchi kengligi 1240 mmni tashkil etadi.

Tolali mahsulotlarni titish jarayonida mahsulot hajmi kengayadi va ularni o'rtasidagi ishqalanish kuchini kamayishiga olib keladi. Tozalash jarayonini samarali amalga oshirish uchun tolali qatlamni bo'lakchalarga ajratish kerak bo'ladi. Titish vaqtida tolali materiallarni begona yot aralashmalardan qisman tozalanadi. Bir vaqtning o'zida mahsulotga yengil zarb berish orqali titish va tozalash amalga oshiriladi.

A.Б. Мошенков va X.K. Tursunovlar tozalash barabani va to'rtli sirtlar orasidagi masofani tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganib, yangi kolosnik shaklini ishlab chiqdilar hamda kolosniklar orasidagi masofalarni qisqarishi tozalash samaradorligini oshishiga olib kelishini isbotlaganlar.

Titish, tozalash jarayonida tolalar mashinaning ishchi organlari ignali, qoziqli, pichoqli, arra tishli qoplamalar yordamida bo'lakchalarga ajratiladi. Natijada tolali qatlamlar mayda tola tutamlariga ajralib tozalash samaradorligini ortishiga olib

keladi. Tozalash mashinalari kolosnik panjaralar bilan jihozlangan bo'ladi, ular tolani tutib qoladi, yot aralashmalar esa kolosnik panjaralar orasidan chiqindi kamerasiga tushadi.

M.АВЕЗОВ ishida kolosnik panjarani parametrlarini o'zgartirish orqali tolalarni panjara orasidan kamroq tushib ketishiga erishilgan. Yuqoridagi kabi tadqiqotlar va olib borilayotgan izlanishlar tola tozalash texnika va texnologiyasining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lishiga qaramasdan, arratishli tozalagichlarning tozalash unumdorligini 50% dan ortiq foydalana olinmasligini ko'rsatmoqda.


Dissertatsiyaning **“yangi konstruksiyadagi aerodinamik tola tozalash mashinasida tozalash jarayonlarining nazariy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida yangi konstruksiyadagi aerodinamik tola tozalash mashinasida tozalash jarayonlarining nazariy tahlili turli fizik va matematik tamoyillarga asoslangan bo'lib, u tola zarralarining harakati, ularning tozalovchi elementlar bilan ta'sirlashuvi va aerodinamik kuchlar ta'sirini o'z ichiga oladi. Tola tozalash mashinalarida samaradorlikni oshirish, jarayonni yanada takomillashtirish uchun aerodinamik tizimning parametrlarini chuqur o'rganish zarur.

Tolalarning harakatini boshqarish aerodinamik kuchlar va boshqa omillarga asoslanadi. Ushbu jarayonda havo oqimlari va ularning tolalarga ta'siri muhim o'rin tutadi. Tolalar havo oqimi orqali harakatlanar ekan, ularning trayektoriyasi va tezligi havo oqimining zichligi, tezligi va yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, tolalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning massasi, shakli va elastikligi ham jarayonga ta'sir qiladi.

Yangi konstruksiyadagi aerodinamik tozalash mashinasi ishchi kamerasida tozalash jarayoni avvalgi konstruksiyalardan farqli ravishda tola va havo oqimlari o'rtasidagi ta'sir kuchlarini aniq nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu usul yordamida tolalardagi mayda iflosliklar, chang va boshqa begona zarrachalar samarali ravishda ajratib olinadi. Jarayonning asosiy maqsadi – tola strukturasi buzmasdan, unga minimal mexanik zarar yetkazib, samarali tozalashni ta'minlashdir. Bu o'z navbatida mahsulot sifatini yaxshilaydi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Yuqorida tahlil qilingan natijalar va olingan xulosalar asosida tola tarkibidagi mayda ifloslik va changlarni samarali tozalash konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Dastlab, taklif etilayotgan konstruksiya bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Unga ko'ra taklif etilayotgan konstruksiyada tola harakati va unga ta'sir etuvchi kuchlar o'rganilgan (3-rasmga qarang).

Tola tozalagich ishchi kamerasiga tola tutamlari kiruvchi quvur orqali kirib keladi. Koordinata o'qlarini quvur boshida deb qabul qilamiz. Bu yerda kamera hajmi katta bo'lgani uchun tola va havo tezligi pasayadi.



3-rasm. Aerodinamik tozalash mashinasida tola harakati va unga ta'sir etuvchi kuchlar.

Tolaning kameraga kirishdagi tezligi V_0 bo'lsin. Uning harakat qonuni quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} m \frac{d\vartheta_x}{dt} &= -K\vartheta_x \\ m \frac{d\vartheta_y}{dt} &= -mg + K\vartheta_y \end{aligned} \quad (1)$$

Bundan:

$$\begin{aligned} \frac{d\vartheta_x}{dt} &= -\frac{K}{m} \vartheta_x \\ \frac{d\vartheta_y}{dt} &= -g + \frac{K}{m} \vartheta_y \end{aligned} \quad (2)$$

Shakl almashtiramiz: $\frac{d\vartheta_x}{\vartheta_x} = -\frac{K}{m} dt$. Integrallaymiz: $\ln \vartheta_x = -\frac{K}{m} t + c_1$. Boshlang'ich shartlar: $t = 0 \Rightarrow \vartheta_x = \vartheta_{x0}$. Unga ko'ra: $C_1 = \ln \vartheta_{x0}$. O'rniga qo'ysak: $\ln \vartheta_x - \ln \vartheta_{x0} = -\frac{K}{m} t$. Shakl almashtiramiz: $\ln \frac{\vartheta_x}{\vartheta_{x0}} = -\frac{K}{m} t \Rightarrow \frac{\vartheta_x}{\vartheta_{x0}} = e^{-\frac{K}{m} t}$. Yakuniy tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\vartheta_x = \vartheta_{x0} \cdot e^{-\frac{K}{m} t} \quad (3)$$

Ikkinchi tenglamani integrallash uchun shakllashtiramiz va belgilash kiritamiz: $\frac{d\vartheta_y}{dt} = -g + \frac{K}{m} \vartheta_y = \frac{K}{m} (\vartheta_y - \frac{m}{K} g)$; $\vartheta_y - \frac{m}{K} g = \vartheta_z$ bo'lsin. U holda, differensiallasak: $\frac{d\vartheta_y}{dt} = \frac{d\vartheta_z}{dt} = \frac{K}{m} \cdot \vartheta_z$ O'rniga qo'yamiz: $\frac{d\vartheta_z}{dt} = \frac{K}{m} \cdot \vartheta_z$, yoki $\frac{d\vartheta_z}{\vartheta_z} = \frac{K}{m} \cdot dt$ Integrallaymiz: $\ln \vartheta_z = \frac{K}{m} \cdot t + C_3$. Boshlang'ich shartga ko'ra: $\vartheta_z = 0$; $C_3 = \ln \vartheta_{z0}$ undan $\ln \vartheta_z = \frac{K}{m} t + \ln \vartheta_{z0}$ yoki $\ln \vartheta_z - \ln \vartheta_{z0} = \frac{K}{m} t$ $\ln \vartheta_z = \frac{K}{m} t + \ln \vartheta_{z0}$ Potensiallasak quyidagi hosil bo'ldi: $\frac{\vartheta_z}{\vartheta_{z0}} = e^{\frac{K}{m} t}$ yoki $\vartheta_z = \vartheta_{z0} \cdot e^{\frac{K}{m} t}$. Belgilashni o'rniga qo'yamiz: $\vartheta_y - \frac{m}{K} g = (\vartheta_y - \frac{m}{K} g) \cdot e^{\frac{K}{m} t}$, $\vartheta_y = 0$ bo'lgani uchun: $\vartheta_y -$

$\frac{m}{K}g = -\frac{m}{K}g \ell^{\frac{K}{m}t}$. Bundan $\vartheta_y = \frac{m}{K}g \left(1 - \ell^{\frac{K}{m}t}\right)$. Nisbiy tezliklar tenglamalari sistemasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:


$$\begin{aligned} \vartheta_x &= \vartheta_{x0} \cdot \ell^{-\frac{K}{m}t} \\ \vartheta_y &= \frac{m}{K}g \left(1 - \ell^{\frac{K}{m}t}\right) \end{aligned} \quad (4)$$

Tola zarrachalarining ko‘chishini o‘rganamiz: $\frac{dx}{dt} = \vartheta_x = \vartheta_{x0} \cdot \ell^{-\frac{K}{m}t}$, $\frac{dy}{dt} = \vartheta_y = \frac{m}{K}g \left(1 - \ell^{\frac{K}{m}t}\right)$, Shakl o‘zgartiramiz: $dx = \vartheta_{x0} \cdot \ell^{-\frac{K}{m}t} \cdot dt$, $dy = \frac{m}{K}g \left(1 - \ell^{\frac{K}{m}t}\right) dt$ Vaqt bo‘yicha integrallaymiz: $x = -\vartheta_{x0} \cdot \frac{m}{K} \cdot \ell^{-\frac{K}{m}t} = C_3$, $y = \frac{m}{K}g \left(t - \frac{m}{K} \cdot \ell^{\frac{K}{m}t}\right) + C_4$, Boshlang‘ich shartlarga ko‘ra: $t = 0 \Rightarrow x = x_0 = 0$; $y = y_0 = 0$, Unga ko‘ra pxorgi sistema quyidagi ko‘rinishga keladi: $0 = -\vartheta_{x0} \cdot \frac{m}{K} + C_3$, $0 = -\frac{m^2}{K^2}g + C_4$, O‘rniga qo‘yib quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz: $C_3 = \vartheta_{x0} \cdot \frac{m}{K}$, $C_4 = \frac{m^2}{K^2}g$, Olinganlarni yuqoridagi tenglamalarga qo‘ysak, tolaning ko‘chish tenglamalari sistemasi xosil bo‘ladi:

$$\begin{aligned} x &= \vartheta_{x0} \cdot \frac{m}{K} \left(1 - \ell^{-\frac{K}{m}t}\right) \\ y &= \frac{m}{K}g \left[t + \frac{m}{K} \left(1 - \ell^{\frac{K}{m}t}\right)\right] \end{aligned} \quad (5)$$

Bu tenglamalardan, bir qancha shakl almashtirishlardan keyin tolaning tozalagich ishchi kamerasidagi trayektoriyasi tenglamasini keltirib chiqaramiz:

$$y = \frac{m^2}{K^2}g \left[\ell_n \frac{m\vartheta_{x0}}{m\vartheta_{x0} - Xk} - \frac{Xk}{m\vartheta_{x0} - Xk} \right] \quad (6)$$




4-rasm. Tolaning tozalagich ishchi kamerasiga kirib kelishidagi trayektoriyalari.


Bu tenglamalarni $m = 10gr = 0,01kg$, $g = 9,81m/s^2$; $K = 0,1 \frac{kg}{s}$; $\vartheta_{x0} = 5 - 20 \frac{m}{s}$ qiymatlarida Maple 2020 dasturida kompyuterda taxlil qilib, turli kirish tezliklarida (ϑ_{x0}) tolaning trayektoriyasi va to'rtli sirt bilan uchrashishdagi tezligi, urilish nuqtasi koordinatalarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Quyida tolaning tozalagich ishchi kamerasiga kirib kelishidagi trayektoriyalari tasvirlangan (4-rasmga qarang).


Tola bo'lakchasi (tutami) ning tozalagich ishchi kamerasidagi harakat trayektoriyasi 1,2,3-turli tezliklarda kirish quvuri yuqori qismidan; 4,5,6-kirish quvuri markazidan; 7,8,9-kirish quvuri pastki qismidan kirib kelayotgan tola trayektoriyasi $\vartheta_{x0} = 15m/s$; $\vartheta_{x0} = 10m/s$; $\vartheta_{x0} = 5m/s$.



5-rasm. Tolaning vibrosirt bo'ylab tezligi: 1) $A=0,005$; 2) $A=0,004$; 3) $A=0,003$; 4) $A=0,001$.



6-rasm. Tolaning vibrosirt bo'ylab ko'chishi graflari: 1) $A=0,005$; 2) $A=0,004$; 3) $A=0,003$; 4) $A=0,001$.



7-rasm. Turli tebranish amplitudasida tolaning vibrosirt bo'yicha harakat tezligining o'zgarishi: 1) $A=0,005$; 2) $A=0,004$; 3) $A=0,003$; 4) $A=0,001$

Olingan natijalarga e'tibor qaratsak, vibrosirt tebranish amplitudasining o'zgarishi tolaning vibrosirt bo'ylab harakat tezligi va ko'chishi sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini ko'ramiz. Tebranish chastotasi esa, tezlik va ko'chish parametrlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tola tozalash qurilmasida tebranuvchi yuza tebranish amplitudasini 2-3 mm atrofida ushlab, sirtning tebranish chastotasini boshqarish orqali tolaning yuza bo'ylab kafolatli ko'chishi va zarur ish unumini ta'minlash nuqtai nazaridan amaliy tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. (5-6-7-rasmga qarang)

Korxonada mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar x_1 - perfosirtga o'rnatilgan eksentrik valning aylanishlar soni (ayl/min), x_2 - kiruvchi havoning tezligi (m/s) va x_3 - perfosirt teshiklari diametri (mm) ko'rsatkichlari olingan. Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash quyida (1-jadvalga qarang) keltirilgan.

Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent, matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher me'zonlaridan foydalaniladi. Chiquvchi omil sifatida Y_1 – umumiy nepslar miqdori, (TotNepCnt, Cnt/g), Y_2 – tolali nepslar miqdori, (FibNepCnt, Cnt/g) va Y_3 - chiqindi tarkibidagi tolaning ulushi, (%) tanlandi.


1-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarishi sathlari va oraliqlarini tanlash


Omillar nomi va belgilanishi	O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i
	-1	0	1	
X_1 - perfosirtga o'rnatilgan eksentrik valning aylanishlar soni, ayl/min	80	100	120	20
X_2 - kiruvchi havoning tezligi, m/s	23	29	35	6
X_3 - perfosirt teshiklari diametri, mm	3	4	5	1

Tadqiqot uchun chiqish parametrining xususiyatlarini aniqlash uchun tuzilgan tenglama uch o'lchovli bo'lgani uchun, tahlildagi kirish omillaridan biri (markaziy holat) deb qabul qilinadi va biz ikki o'lchovli grafikni modellarini 3 ta tenglamaga o'zgartirish yo'li bilan tuzamiz.


$$Y_R = 222 + 9,63x_1 - 6,5x_2 + 10,13x_3 + 7,5x_1x_2 + 6,25x_1x_3 - 1,5x_2x_3 + 16,68x_1^2 + 20,8x_2^2 + 6,43x_3^2$$



a) umumiy nepslar miqdorini eksentrik val aylanishlar soni va kiruvchi havo tezliklariga bog'liqligi




b) umumiy nepslar miqdorini kiruvchi havo tezliklari va perfosirt teshiklari diametriga bog'liqligi




c) umumiy nepslar miqdorini perfosirt teshiklari diametriga va eksentrik val aylanishlar soniga bog'liqligi

8-rasm. Umumiy nepslar miqdorini optimallashtirish bo'yicha model grafigi.


Mathcad dasturi yordamida omillarning bog'liqligini ikki o'lchovli grafiklari olingan.



a) x_1 va x_2 omillarning bog'liqligi grafigi



b) x_2 va x_3 omillarning bog'liqligi grafigi



c) x_1 va x_3 omillarning bog'liqligi grafigi

9-rasm. Umumiy nepslar miqdorini optimallashtirishda kiruvchi omillarning bog'liqlik grafiglari.

Yuqoridagi 8-9- rasmlarda eksentrik valning aylanishlar soni, aerodinamik tozalash mashinasining kirish qismidagi havoning tezligi va perfosirt teshiklari diametri ko'rsatkichlariga bog'liqligi (tahlili) izoliniyalari hamda Mathcad dasturidagi grafiglari tasvirlangan.

Nazariy tadqiqotlar asosida olingan tenglamalardan hamda chizmalardan ko'rinib turibdiki, eksentrik valning aylanishlar soni 100 ayl/min, kirish qismidagi havoning tezligi 29 m/s va perfosirt teshiklari diametri 3 mm bo'lganda eng yaxshi natijaga erishilgan.

Dissertatsiyaning "**paxta tolasini mayda iflosliklardan aerodinamik tozalash mashinasini ishlab chiqarish sharoitiga tadqiqi**" deb nomlangan uchinchi bobida yangi konstruksiyani elementlari tuzilishi va ularni qo'llab olingan natijalar tahlili keltirilgan. Yangi konstruksiyadagi takomillashtirilgan tozalash mashinasining bir necha qismlari takomillashtirilgan bo'lib, ularning tuzilishini quyida ko'rish mumkin (10-rasmga qarang).




a)



b)



c)



d)

10-rasm. Aerodinamik tozalash jihozini takomillashgan elementlari: a) eksentrik val; b) eksentrik; c) val; d) podshipnik.

Takomillashtirilayotgan Dustex jihozining perfosirt teshik diametri 3 mm bo'lgan qiya perfosirtini ishchi yuzasi uzunligi 920 mm eni 1600 mm bo'lib, ostki qismiga eksentrik val o'rnatilgan. (11-rasmga qarang)



11-rasm. Takomillashtirilgan Dustex jihozi.

Ekssentrik valning umumiy uzunligi 1750 mm, ishchi yuzasi 1600 mm tashqi diametri 30 mm bo'lib, unga uzunligi 80 mm, eni 50 mm ichki diametri 30 mm bo'lgan eksentriklar o'rnatilgan. Bunda valning ishchi yuzasiga 228 mm masofada va 60° burchak ostida 6 ta eksentrik lar joylashtirilgan. Ekssentrik val Dustex SP-DX jihozini qiya perfosirtini ostki qismiga 2 ta ichki diametri 25 mm bo'lgan podshipnik yordamida 500 mm oraliqda mahkamlangan. Mahkamlangan eksentrik valga 48 ayl/min tezlikda harakat berish uchun qo'shimcha dvigatel o'rnatilib, shkiv va tasmali uzatma orqali harakat berilgan. Ekssentriklar perfosirtga ishqalanishi natijasida chiqindi kamerasida yong'in chiqish xavfi ortib

boradi. Yong'in xavfini oldini olish maqsadida perfosirtni ostki qismiga eni 15 mm uzunligi 25 mm qalinligi 3 mm bo'lgan kauchuklar perfosirt ostiga yopishtirilgan.

Mashinalarning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishda energiya resurslari va moddiy harajatlarni tejash zarurati tolalarni tozalash uchun mo'ljallangan jihozlar va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha yangi mashinalar ishchi a'zolarining optimal parametrlarini, ularning ish rejimlarini tanlash imkonini beradigan nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazishni talab qilmoqda.

Shu munosabat bilan, tolalarni mayda iflosliklardan tozalash uchun mo'ljallangan jihozlarning eng samarali parametrlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu maqsadda takomillashtirilgan Dustex SP-DX aerodinamik tozalash mashinasidan olingan tolali qatlamning xossalari mavjud aerodinamik tozalash mashinasidan olingan mahsulotning xossalari bilan taqqoslandi (2-jadvallarga qarang).


2-jadval

Tarash bunkeriga kirayotgan tolali qatlamning xossa ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Korxonada variantida	Takomillashtirilgan mashinada
1	Umumiy nepslar miqdori, TotNepCnt [Cnt/g]	234	217
2	Chigit qobig'ili nepslar o'lchami, SCNepSize [μ m]	981	956
3	Tolali nepslar miqdori, FibNepCnt [Cnt/g]	212	198
4	Tolali nepslar o'lchami, FibNepSize [μ m]	660	587
5	Chigit qobig'ili nepslar miqdori, SCNepCnt, [Cnt/g]	22	22
6	Umumiy nepslar o'lchami, TotNepSize [μ m]	690	675
7	Nomeri bo'yicha kalta tolalar miqdori, SFC(n) %<12.7 mm	20.8	20
8	Massasi bo'yicha kalta tolalar miqdori SFC(w), %<12.7 mm	7.3	7
9	Pishib yetilganligi Maturity [mat1]	0.93	0.93
10	Chiziqli zichlik, Fineness [mtex]	170.0	170.0
11	25% tolalardan uzun bo'lgan tolalar uzunligi, UQL(w), [mm]	29.0	29.0
12	Ifloslik miqdori, TrashCnt [Cnt/g]	39	38


Yuqoridagi mavjud va takomillashtirilgan Dustex SP-DX aerodinamik tozalash mashinasidan olingan tolali qatlamning xossalari 3.4-jadvalda keltirildi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Dustex SP-DX aerodinamik tozalash mashinasidagi qiya joylashgan perfosirtning ostki qismiga o'rnatilgan eksentrik val olinadigan tolali qatlamning xossalariga bevosita ta'sir qilishi aniqlandi. Jadval

natijalarini tahlil qilishni soddalashtirish maqsadida quyida ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha gistogrammalar keltirilgan (12-14-rasmlarga qarang).




12-rasm. Umumiy va chigit qobig'ili nepslar miqdori.

Yuqoridagi 12-rasmda umumiy va chigit qobig'ili nepslar miqdori qiymatlari keltirilgan. Unga ko'ra takomillashgan konstruksiyali aerodinamik tozalash mashinasidan olinayotgan tolali qatlamdagi chigit qobig'ili nepslar o'lchami korxonada variantidan 2,54% ga, umumiy nepslar miqdori 7,2% yaxshilangan.



13-rasm. Massa va nomeri bo'yicha kalta tolalar miqdori.

13-rasmda tasvirlangan grafikka ko'ra, massa va nomeri bo'yicha kalta tolalar miqdori takomillashgan konstruksiyadagi aerodinamik tozalash mashinasidan chiqayotgan tolali qatlamda yaxshilanish kuzatilganligini, ya'ni, massa bo'yicha kalta tolalar miqdori korxonada variantidan 4,1% ga, nomeri bo'yicha kalta tolalar miqdori 3,8% yaxshilanganini ko'rish mumkin.



